



**O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI QO'LYOZMALAR FONDI VA U YERDA SAQLANAYOTGAN
ARAB TILI GRAMMATIKASIGA OID MANBALAR**

Abduvaliyeva Komila

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi, uning yuksak madaniyati, qadriyatlari, boy ilmiy merosi butun jahonning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va kelmoqda. O'zR FA Sharqshunoslik institutining noyob qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan ulkan xazina ham shu jumladandir. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi dunyodagi eng mashhur va boy fondlardan biridir. U yerda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar o'tmishdagi Sharq islom olamining qariyb ming yillik tarixini o'z ichiga olgan. Nafaqat O'zbekiston olimlari, balki butun dunyo olimlari ham mazkur qo'lyozmalar fondidan foydalanib, o'tmish tarixini va madaniyatini yoritadilar.

Respublikamiz hududida XIX asr oxirlarigacha kutubxonalar madrasa va masjidlar qoshida tashkil etilgan. 1870 yilga kelib esa ushbu kutubxonalardan tashqari davlat kutubxonasi ham tashkil etildi. Samarqand xalq kutubxonasi, Mirzo Ulug'bek madrasasi qoshidagi kutubxona ham shu davrda ochildi. Bu kutubxonalarda turli tillardagi kitoblar, gazeta va jurnallar saqlangan. Oktabr to'ntarilishi arafasida Turkistonda ja'mi 14 davlat kutubxonasi faoliyat yuritgan. 1870 yilda tashkil etilgan davlat kutubxonasi qoshida Sharq qo'lyozmalar bo'limi mavjud bo'lgan. Unda 1889 yilda 87 jild, 1895 yilda 90 dan ortiq qo'lyozmalar mavjud bo'lgan. Inqilobdan keyin esa bu bo'limdagi qo'lyozmalar soni tez ko'paya boshlagan.¹ Qo'lyozmalar turli arab, fors, tojik, o'zbek, urdu, pushtu va boshqa sharq xalqlari tillarida bitilgan turli sohalarga oid edi. Bu qo'lyozmalar xazinasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondiga asos bo'ldi. 1944 yilda esa Respublika Davlat kutubxonasi Sharq bo'limi negizida Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tuzildi va 1950 yildan bu institut Sharqshunoslik instituti deb atala boshladi. Hozirda bu noyob fondga 25.977 jild qo'lyozma asarlar mavjud bo'lib, ular o'tmishdagi fanlarning deyarli hammasini o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, 39.107 jild toshbosma va bosma asarlar ham saqlanmoqda. Bundan tashqari, 5000 dan ortiq turli hujjatlar ham bu fondan o'rin olgan.²

Shuningdek arab tili grammatikasiga oid manbalar ham ushbu fondga anchaginani tashkil etadi. Arab tili grammatikasini o'rganish yurtimiz ilm-fan rivoji va tarixidan dalolat beruvchi buyuk merosimizni o'rganishda muhim omil hisoblanadi. Chunki

¹A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik.T.: 2000 yil.

² Hasaniy.M, Habibullayev.A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. –T.: "ToshDSHI", 2012. –B.64.





qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan manbalarning aksari arab tilida yozilgan. Arab tili grammatikasi asosini sarf va nahv ilmlari tashkil etadi va balog'at, fasohat kabi ilmlar ularni boyitadi. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida turli sohalarga oid manbalar juda ko'p bo'lib, arab tili sarf va nahv ilmlari ham shu jumladandir.

O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi arab tili grammatikasiga oid manbalarni yozilgan tiliga ko'ra ikki turga ajratish mumkin.

1. Arab tilida yozilgan manbalar.
2. Fors tilida yozilgan manbalar.

Har ikki tilda yozilgan manbalar ichida ham nahv, ham sarfga oidlari bor.

Arab tilida yozilgan manbalar son jihatidan ko'p bo'lganligi uchun quyida ular haqida batafsil ma'lumotlar keltiramiz.

1. Usmon ibn Umar ibn Hojib qalamiga mansub "Kofiya fi-n-nahv" asari. Qo'lyozmalar fondida ushbu asarning 94 nusxasi saqlanmoqda.

2. Abdurahmon ibn Ahmad al-Jomiyning "Favoid uz-ziyoia" asari. Bu asar "Kofiya"ning sharhi bo'lganligi uchun "Sharhi mullo Jomiy" deb ham nomlanadi. "Favoid uz-ziyoia"ning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik insitututi qo'lyozmalar fondida 84 nusxasi saqlanmoqda.

3. "Favoid uz-ziyoia" asari sharh bo'lgani uchun ham uni sharhlash maqsadida ko'p mualliflar tomonidan hoshiyalar yozilgan. Hoshiyalar soni ham anchagina bo'lib, 114 nusxadan iborat. Ular turli muallif va davrlarga oiddir. "Favoid uz-ziyoia"ga yozilgan hoshiyalar ichida Abdulg'ofur al- Loriyning hoshiyasi diqqatga sazovardir. Shuningdek, Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Buxoriy, Ibrohim ibn Muhammad Arabshoh, Shamsiddin Muhammad al-Qo'histoniy, Mullo Sodiq, Habibulloh Mirzajon Sheroziy, Hofiz Ko'hakiy ash-Shoshiy, Mirjamol ibn Nosir, Mullo Ismatulloh Samarqandiy va boshqalar qalamiga mansub hoshiyalar ham mavjud.

4. Muhammad ibn Usmon ibn Umar al-Balxiy qalamiga mansub "Vofiya fi-n-nahv" asarining 7 nusxasi saqlanmoqda.


5. Ali ibn Muhammad az-Zaririy al-Qo'handaziy qalamiga mansub "Zariry fi-n-nahv" asarining 2 nusxasi bor.

6. Shahobiddin ibn Shamsiddin ibn Umar al-Hindiy ad-Davlatobodiy qalamiga mansub "Irshod fi-n-nahv" asarining 2 nusxasi bor.

7. Nosir ibn Abdussayyid al-Motruziy qalamiga oid "Kitab ul-misbah fi-n-nahv" asarining 2 nusxasi bor.

8. Shayx Roziy Muhammad ibn Hasan Astrabodiy qalamiga mansub "Sharhi Kofiya" asarining 13 nusxasi bor.

9. Abdulqohir ibn Abdurahmon al-Jurjoniyy qalamiga mansub "Avomil" asari ham ko'p nusxali asarlardan bo'lib, fondida 44 nusxasi saqlanmoqda.





10. “Avomil” asariga yozilgan 18 sharh mavjud bo’lib, ular Muhammad Sodiq ibn Darvesh Muhammad va Pir Muhammad ibn Yodgor Muhammad ash-Sheroziy qalamiga mansub.

11. Ziyouddin al-Makkiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi al-e’rob” asarining 1 nusxasi bor. Ushbu muallif Jarulloh az-Zamaxshariyning shogirdlari bo’lganligi haqida ma’lumotlar bor.

12. Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning “Harakat ul-e’rob” asari 6, “Muqaddamat ul-adab” asari 10 dan ortiq, “Fasl fi-l-huruf”, “al-Unmuzaj”, “Mufasssal fi-n-nahv” asarining 7, “Tasarrufot” asarining 7 nusxasi mavjud.

13. Jaloliddin ibn Abu Bakr Suyutiy qalamiga mansub “Ishboh va nazoir fi-n-nahv” asari yakka nusxada saqlanmoqda.

14. Husan posho ibn Alouddin al-Asvadning “Sharhi Misboh” asarining 4 nusxasi bor.

15. Abduljalil ibn Fayruz al-G’aznaviyning “Hidoya fi-n-nahv asarining” 3 nusxasi mavjud.

16. Asiriddin abi Hayyonning “Irtishaf uz-zarb fi lisani-l-arab” asari yakka nusxada mavjud.

17. Ibn Hojib va Ibn Kamol qalamiga mansub “Risala fi tahqiqi muannas sima’iy” asari mavjud.

18. Hurshid Ahmadning “Ifoda fi kashfi izofa” asari ham yakka nusxali asardir.

19. Muhammad Boqiy Buxoriyning “Mas’alat ul-istisno” asarining 6 nusxasi mavjud.

20. Usmon ibn Umar ibn Hojib qalamiga mansub “Shofiya fi-t-tasrif” asarining 9 nusxasi mavjud.

21. Yuqoridagi “Shofiya fi-t-tasrif” asariga yozilgan sharhlar 10 nusxada bo’lib, ular Muhammad ibn Husan al-Jorbardiy qalamiga mansubdir.

22. Ibrohim ibn Abdulvahhob az-Zanjoniyning “Sarfi Zanjoni” asari ham ko’p nusxali asarlardan bo’lib, 36 nusxasi bor.

23. “Sarfi Zanjoni” asariga yozilgan sharhlarning 13 nusxasi mavjud bo’lib, ular Mas’ud ibn Umar at-Taftazoniy va Muhammad ibn Qosim ibn Yusuf al-Husayniy qalamiga mansubdir.

24. Muhammad ibn al-Qosim al-Ma’ziy qalamiga mansub “Ma’ziy fi-t-tasrif” asarining 37 nusxasi bor.

25. Abu Bakr Muhammad ibn Umar ibn ul-Aziz al-Qurtubiyning “Af’ol va tasrifuha” asari ham yakka nusxada saqlanmoqda.

26. Sulton xo’janing “Hasr ul-abvab fi-s-sarf” asari, Mir Said Sharifning “Ta’lilot fi-s-sarf”, Sher Muhammad ibn Shayx Muhammad Qurayshiyning “Qovaid us-sarf” asari, Abduljamil ibn Mahmud ibn Muhammad as-Sofiyning “Jame’ ul-masail fi-t-tasrif” asari, Ahmad ibn Ali ibn Mas’udning “Miroh ul-arvoh” asari, Ahmad ibn Ali Sijistoniyning “Sharhi Qisoriy” asari kabilar ham yakka nusxadagi asarlardir.

Yuqorida keltirilgan asarlardan tashqari arab tili sarf va nahvga oid ba'zi asarlar ham borki, ularning mualliflar noma'lum. "Tarjimai Kofiya", "Risola fi-n-nahv", "Hoshiya ala mabhas majrurot", "Muannas samoiy va ja'm muannas", "Tag'oyyurot va tasarrufot ul- af'ol", "Tasrif ul- af'ol", "Risala fi-l-furuq", "Risala fi-l-masdar", "Izhar ul-asror", "Kitab maqsudiya" kabilar shular jumlasidandir.

Arab tili grammatikasiga oid arab tilida yozilgan qo'lyozma asarlar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik insitituti qo'lyozmalar fondida 450 nusxadan ortig'ini tashkil etadi. Fors tilida yozilganlari esa 200 nusxadan ortiqroqdir. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik insitituti qo'lyozmalar fondida shu kabi boshqa sohalarga oid yana minglab asarlar borki, ularni ilmiy o'rganish va ommalashtirish nafaqat tarixiy ilmiy merosimizni o'rganish jihatidan balki bugungi kun ilm fan talabi nuqtai nazaridan ham muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. T.: 2011 yil.
2. A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. T.: 2000 yil.
3. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondidagi sohaga oid kartchkalar.
4. www.ziyonet.uz
5. www.arabic.uz